



NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 18-sentabr

141-5-70-Q/24

Konimex tuman hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli hamda viloyat hokimining 2024 yil 7 sentyabrdagi 248-5-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash haqida

“O‘zbekiston– 2030” strategiyasiga binoan davlat-xususiy sheriklik loyihalariga 2030-yilga qadar kamida 30 mlrd AQSH dollari miqdorida xususiy investisiyalarni jalb qilish maqsadli ko‘rsatkichini ta‘minlash, hududlarda yuqori iqtisodiy o‘rinish uchun hududlarda zarur bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatli tajribani boshqa sohalarga tatbiq etish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030 yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli va viloyat hokimining 2024 yil 7 sentyabrdagi 248-5-0-Q/24 qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:
2024-2026-yillarda ustuvor davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar;

2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi (keyingi o‘rinlarda- Dastur) tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Otakulov, M.Tulegenov), tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (G.Abdullayeva), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (Z.Karimov), Dastur loyihalariga xalqaro moliya institutlari talabini inobatga olgan holda Maktabgacha va maktab ta‘lim vazirligi so‘rovi asosida yer maydonlarini ajratish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rib borsinlar.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tegishli tashkilot va bo‘limlar, Dastur doirasidagi davlat-xususiy sheriklik (keyingi o‘rinlarda DXSH) loyihalarining sifatli amalga oshirilishi, amaliyotga tatbiq etilishi hamda atrof muhit va ijtimoiy xavfsizlik standartlariga muvofiqligini eng yaxshi xalqaro amaliyotlar asosida tashkil etsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Otakulov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Beknazarov), tegishli tashkilot va bo‘limlar 2024-yil 1-noyabrga qadar 2024-2030-yillarda DXSH asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturiga kiritilgan har bir DXSH loyihasi bo‘yicha ularni amalga oshirishning hududlar kesimida kompleks tarmoq jadvallarini ishlab chiqib, viloyat hokimligiga kiritish choralarini ko‘rsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Saitov, M.Tulegenov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Beknazarov), tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (B.Imamkulov), madaniyat bo‘limi (M.Maralov), Bolalar va o‘smirlar sport maktabi (N.Kulatov), 2024-yil yakuniga qadar samarasiz foydalanib kelinayotgan tumandagi yirik shifoxonalar, madaniyat va sport inshootlarini (shu jumladan, madaniyat saroylari, stadionlar, konsert zallari, istirohat bog‘lari) xatlovdan o‘tkazib, xususiy sektorga DXSH asosida o‘tkazish bo‘yicha takliflarni viloyat hokimligiga kiritish choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tegishli tashkilot va bo‘lim rahbarlari tegishligi bo‘yicha belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va vazifalarni to‘liq, sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda salohiyatli investorlarni jalb qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Konimex tumani hokimi



**RO‘ZIYEV
RUSLAN.NASIROVICH**

Konimex tuman hokimining
2024-yil 18-sentabrdagi
141-5-70-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Tumanda 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida
amalga oshiriladigan loyihalar dasturi**

T/r	Loyiha nomi	Loyiha bitimini imzolash vaqti	Ma'sullar
1	Osiyo taraqqiyot banki ko'magidamaktabgacha ta'lim muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash	2025 yil 4 chorak	Tuman hokimining o'rinbosari A.Otakulov, tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi mudiri G.Abdullayeva
2	Tashabbuskor kompaniyalar bilan birgalikda 2026-yildan boshlab har yili maktabgacha ta'lim muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash	2026-2030 yillar	Tuman hokimining o'rinbosarlari (M.Tulegenov, A.Otakulov), tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (G.Abdullayeva), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (I.Beknazarov)
3	Tashabbuskor kompaniyalar bilan birgalikda 2027-yildan boshlab har yili umumta'lim maktablarini qurish va jihozlash	2027-2030 yillar	Tuman hokimining o'rinbosarlari (M.Tulegenov, A.Otakulov), tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (G.Abdullayeva), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (I.Beknazarov)

4	Samarqand- Buxoro pulli avtomobil yo'lini qurilishi bo'yicha tegishli choralarni kurish	2027-20230 yillar	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Otakulov), tuman yo'llardan foydalanish dvlrat muassasasi boshlig'i (O.Xoshimov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (I.Beknazarov)
5	Tashabbuskor kompaniyalar bilan barcha hududlarda elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qurish va xususiy sektor boshqaruviga berish choralarni kurish	2025-2026 yillar	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Otakulov), tuman elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i (N.Shaniyazov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (I.Beknazarov)
6	Tashabbuskor kompaniyalar bilan barcha hududlarda gaz tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qurish va xususiy sektor boshqaruviga berish choralarni ko'rish	2024 yil 4 chorak	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Otakulov), "xududgazta'minoti" Navoiy viloyati filiali tuman boshlig'i (Sh.Farmonov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (I.Beknazarov)
7	Tashabbuskor kompaniyalar bilan birgalikda barcha hududlarda ichimlik suv ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish, qurish va xususiy sektor boshqaruviga berish choralarni ko'rish	2024 yil 4 chorak	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Otakulov), "Navoiysuv ta'minoti" AJ tuman bo'limi boshlig'i (T.Imomov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (I.Beknazarov)
8	Salohiyatli investorlar bilan birgalikda qattiq maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash klaster xizmatini	2026 yil 4 chorak	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Otakulov), Ekologiya, atrof muhitni

	tashkil etish choralarini ko'rish		muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi, (N.Buriyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (I.Beknazarov)
--	--------------------------------------	--	---